

HARAKATLI O`YINLAR PAYDO BO`LISHI TARIXI VA ULARNI BOSHLANG`ICH SINIF O`QUVCHILAR DARSLARIDA QO`LLASH

Xabibillayeva Iroda Jaloliddin qizi

Namangan shaxar 9-umumta`lim maktabi o`qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu tezisda harakatli o`yinlar, ularning kelib chiqishi va uning bolalarning aqliy va ruhiy xolatiga ta`siri, ularning jismoniy sifatlarini yanada oshirishi, ruhiy xolatiga o`tkazadigan ta`siri va ular yordamida mashg`ulotni samarali tashkil etish yo`llari haqida so`z yuritiladi.

Kalit so`zlar. "Devonu lug`oti turk", "Boburnoma", "Al-Qonun", "Navro`znoma", syujetli o`yin, ijodiy o`yin, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, "Karusel", "To`p kimniki"

Harakatli o`yinlar bugun paydo bo`lib qolgani yo`q. Harakatli o`yinlar haqida Maxmud Qoshg`ariyning "Devonu lug`oti turk" asarida ba`zi bir ma`lumotlar yetib kelgan. Unda ov qilishda it va qushlar yordamida, o`q yoy bilan ov qilish haqida gap boradi. Quyidagi satrlar keltirib o`tilgan:

Ov qushlarini ushlab,
Tulki to`ng`iz tishlatib,
Itlarimiz ishlatib,
Hunar bilan gerdaydik.

Zahiriddin Muhammad boburning "Boburnoma" asarida ham sportdagi turli o`yinlar haqida ma`lumotlar keltirib o`tilgan. Ibn Sinoning "Al-Qonun" asarida, Umar Xayyomning "Navro`znoma" asarlarida ham harakatli o`yinlar yozib keltirilgan. Hozirda harakatli o`yinlar, ular orqali jismoniy sifatlarni oshirishga juda ko`p e`tibor berilyapti. O`zbekistonda esa Faxriddin xo`jayev, T. Usmonxo`jayev, I. Abdrahmonov, Sh. Galiev va bir qancha olimlar o`zlarining izlanishlari o`laroq bu haqida ko`plab ma`lumotlar keltirib o`tishgan.

Harakatli o`yinlar bolani har tomonlama jismoniy holatini yaxshilaydi, bir jamoa bo`lib o`ynalganda undagi o`rtoqlari orasidagi munosabatlarga ijobiy ta`sir etib, muomalasini yaxshilaydi, liderlik, faollik xususiyatini oshiradi. Tafakkur va ongiga ta`sir etib, xotira, diqqat, e`tiborni va fikrini jamlashga, ruhiy hissiy tomondan ham unga zavq berib kayfiyatini yaxshilaydi. Bu esa unda keyinchalik ham bu o`yinlar orqali yanada ko`proq shug`ullanishga undaydi. Bolarda eng kerakli jismoniy sifatlarni: kuch, tezkorlik, egiluvchanlik, chaqqonlik sifatlarini o`stirishga xizmat qiladi. Ayniqsa sport o`yinlarini harakatli o`yinlar asosida tashkil etilganda juda yaxshi samara beradi.

Dastlab o`yin tushunchasiga to`htaladigan bo`lsak, o`yin – hissiy faoliyat bo`lib, tarixan tarkib topgan ijtimoiy hodisa xisoblanadi. Pedagogik amaliyotda esa asosan ikki xil harakatli o`yin turlaridan foydalanadi.

1. Ijodiy va erkin o`yinlarda o`yin qatnashchilari o`zlari o`yin darajasini belgilaydi va o`yin maqsad va rejalarini o`zlari amalga oshiradi. Maktabgacha va boshlang`ich maktab bolalari bu o`yin turlaridan ko`proq foydalaniladi. Chunki ularda o`yinlarni

voqealik, syujetlik asosida o`ynash bir muncha qulay xisoblanadi. U o`z navbatida yakkalik va guruhli yo`nalishlarga bo`linadi.

2. O`rnatilgan aniq qoida asosida tashkillashtirilgan harakatli o`yinlar. Bu o`yinlar aniq yo`nalishiga ega boladi va shu bilan ijodiy o`yinlardan farq qiladi. Biroz murakkabroq o`z qiziqishlarini himoya qiladigan va yana guruhdagi o`zaro o`rtoqlariga ham yordam va ko`mak beradi. Misol uchun o`yinda o`rtog`ini qochishiga yoki raqib tomondan himoya qiladi.

Jamoali harakatli o`yinlar o`z navbatida o`yin mobaynidagi faoliyat turlariga ko`ra 5 turga ajratiladi.

1. Taqlid, ijodiy, ritmik harakatlarni bajarish bilan bog`liq bo`lgan faoliyat

2. Tezlik va chaqqonlik bilan bog`liq bo`lgan faoliyat

3. Top, tayoq va boshqa buyum bilan bog`liq faoliyat

4. Sakrash, to`siqlarni oshib o`tish, kuch ishlatib qarshilik ko`rsatish bilan bog`liq faoliyat.

5. Mo`ljalga olish, kuzatuvchanlik bilan bog`liq bo`lgan faoliyat.

Harakatli o`yinlardan hozirda sport mashg`ulotlarida, dars faoliyatida ham juda yahshi samara berib kelmoqda. Harakatli o`yinlarni maktab darslariga yo`naltirilganda ularni asosan 2xil yo`nalishda yani:

- boshlang`ich sinflar darslarida harakatli o`yinlardan foydalanish

- yuqori sinflar darslarida harakatli o`yinlardan foydalanish

Asosan boshlang`ich sinf o`quvchilar hali yosh va malaka ko`nikmalari to`liq o`qituvchi qanchalar o`yin jarayoniga ijodiy yondashsa o`yinlar ularda tashabuskorlik malakasini o`stiradi. Keyinchalik o`yinni o`ynab borganlari sari sardorlik, tashabuskorlik, liderlik hususiyatini oshiradi.

1-4 sinf o`quvchilarida uyushqoqlik bilan bir maromda yurish ko`nikmalarini xosil qilish uchun "Musiqa jo`rligida yurish", "Karusel", "O`ylab top", "Kimning ovozi" singari o`yinlardan va yana "O`razan –burazan", "Pat", "Pr-r-r..." "Kim keldi" singari mazmunli o`yinlarni tanlash va o`tkazish muhimdir.

Boshlang`ich sinf o`quvchilariga mos xarakatli o`yinlar jismoniy tarbiya darsning asosi xisoblanadi. Ularga shu orqali ta`sir ko`rsatish va natija olish samarali xisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R. Rasulov, M. Qalandarov. "Boshlang`ich sinflarda harakatli o`yinlar. O`quv qo`llanma – T. 2006-yil
2. Qurbonova M.A. Qosimova M.U Milliy va harakatli o`yinlar O`quv – uslubiy qo`llanma.
3. Nasriddinov F.N, Qosimov.A. Sh O`zbek milliy o`yinlari.
4. ziyo.uz sayti